

IJODKOR BADIYU TAFAKKURI VA MILLIYLIK

*Berdiyeva Nilufar Ibodullayevna**Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti*

Annotation: Ushbu maqolada ijodkorning badiiy tafakkuri va she'riyatdagi milliylikning o'ziga xos xususiyatlari aks ettirilgan. A.Navoiy, A.Oripov, H.Sharipov va Tolib Yo'ldoshning ayrim she'rlaridagi ijodkor tafakkuri milliylikning ko'rinishlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: badiiy tafakkur, milliylik, poetik, ijod, obrazli tafakkur, poeziya.

Аннотация: В данной статье отражены особенности художественного мышления Творца и национальности в поэзии. А.Навои, А.Арипов, екоторых стихотворениях Х.Шарипова и Талиба Юлдаша анализируются проявления творческой мысли о национальности.

Ключевые слова: художественное мышление, национальность, поэтичность, творчество, образное мышление, поэзия.

Annotation: This article reflects the artistic thinking of the creator and the peculiarities of nationality in poetry. A.Navoi, A.Aripav, The creative thinking of H.Sharipov and Talib Yuldashkin in some of his poems analyzed the manifestations of nationality.

Key words: artistic thinking, nationality, poetic, creativity, figurative thinking, poetry.

Ma'lumki, badiiy-estetik tafakkur tiplari o'z tabiatiga mos bo'lgan epik, lirik va dramatik janrlar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Lirik janrlari epik va dramatik turga mansub asarlardan farqli o'laroq, hayotiy voqelikning inson ongi-shuuriga ko'rsatgan ta'sirini badiiy-estetik talqin qilish asnosida milliy idrokni ifoda etadi. Shaxs ongi-ruhiyatidagi tuyg'u va kechinmalar hamda o'y-mushohadalarning badiiy ifodasi o'z tabiati va mazmuniga munosib milliylik shaklda zuhur topadi. Buyuk mutafakkir Aristotel fikricha ham, «Hajm asarning mohiyatidan kelib chiqadi. Har doim yaxshiroq tushuniladigan narsa hajman (ya'ni shaklan) ham go'zalroq bo'ladi».[1:23] Badiiy ijodning asrlar davomida eskirmaydigan bu muhim qonuniyatini, ya'ni adabiyotda shakl va mazmun mutanosibliigi va mazmunning ustuvor ahamiyatini Alisher Navoiy ham alohida ta'kidlab, shunday yozadi:

Nazmda ham asl anga ma'ni durur,

Bo'lsun aning surati har ne durur.

Nazmki, ma'ni anga marg'ub emas,

Ahli maoniy qoshida xo'b emas.

Nazmki, ham surat erur xush anga,

Zimnida ma'ni dag'i dilkash anga .[2;432]

Darhaqiqat, mazmun va shaklning yaxlitligi adabiyot va san'atda hamisha hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu mutanosiblik yo'qolsa, badiiylik ham zavol topadi. Boshqacha qilib aytganda, «O'tkan kunlar» romanining mazmunini «Ko'kan» yoki «Zaynab va Omon» dostoni shaklida ifodalab bo'lmaydi. Abdulla Oripovning «Donishmand dediki...» to'rtligi yoki Husniddin Sharipovning «Baliq falsafasi» ikkilikida aks etgan mazmunni «Shum bola» yoxud «Elvizak» qissalari shakliga solib ifodalash qiyin. Shoirning ongi-tafakkurida uyg'ongan o'y-kechinmalar muayyan badiiy-estetik ma'no tarzida ifodalangach, o'z mohiyatiga mutanosib shaklda namoyon bo'lishi so'z san'atining muhim qonuniyatlaridan biri ekanligi isbotlangan haqiqatdir.

Demak, shoir tanlagan badiiy ifoda usuli tasvirlanayotgan voqelik, narsa-predmetning, kechinma yoki mushohadaning mohiyatiga daxldor tarzda namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, she'riy asarlarda qo'llanilgan badiiy ifoda usullari bir-biridan farqlangani singari shoirlarning badiiy tafakkur tabiatidagi o'ziga xos xususiyatlar individual uslublarning bir-biriga o'xshamasligidan dalolat beradi.

Abdulla Oripovning «Donishmand dediki...» nomli to'rtligida inson umrining mazmun-mohiyati, shaxsning imkoniyatlari xususida bedilona obrazli tafakkur yuritiladi:

Donishmand dediki, osonni kutma,

Imkondan ortiq bir imkonni kutma.

Daryodan daryoni talab aylagil

Va lekin hech qachon ummonni kutma .[3;19]

«Daryo», «ummon» tushunchalari o'z zimmasiga yuklangan ijtimoiy-falsafiy mazmunga ko'ra milliy obrazlardir. Daryo – bu suvi limmo-lim oqib yotgan serg'uluv, asov daryo emas. Ummon – bu teran va hududsiz kenglik emas. Ular o'z zimmasiga olgan va aks ettirayotgan ma'no-mohiyatiga ko'ra ramzga aylanadi. Insonga tabiat tomonidan nasib etgan, ruhiyatiga singdirilgan fikriy-aqliy va ma'naviy kuch-qudratga munosib shiddat xos. Shu ma'noda ijodkorlarga xudo yuqtirgan iste'dodning darajasi ham har xil. Kimlarningdir umri sham misol «lip» etadi-yu, qayta ko'z ocholmaydi. Yana ayrim umrlar bo'ladiki, bamisoli oy yog'dusi singari tunlari ko'zlaringni yoritib, ko'nglingga hayotbaxsh bir yorug'lik baxsh etib turadi. Yana shunday yorug', munavvar umrlar bo'ladiki, ularning iste'dodi oftob misoli beqiyos va betimsol. A.Oripovning yuqoridagi to'rtligida tasvirlangan daryo va ummon tushuncha va poetik ramzlari o'quvchi tasavvurida rangin ma'noli taassurotlar uyg'otib, inson umrining mazmuni xususida chuqur mushohadalarga undaydi.

H. Sharipovning «Baliq falsafasi»[4;32] ikkiligi ham falsafiy mazmunga ega. U inson fe'li-faoliyatidagi noqisliklar, ojizliklar, buqalamunliklar xususida obrazli yo'sinda fikr yuritadi. Ayrim odamlar amal-martabaga, mol-mulkka, boylikka erishish uchun o'zini ne-ne ko'ylarga solmaydi, deysiz. Bundaylar nufuzli kimsalar oldida

yaltoqlanadi, ya'ni ul zotlarning yo'llarini supurgi misoli yaraqatib, yog' tushsa yalagudek qilib qo'yishga mahkum.

Dumingni likillatasan, olg'a ketasan.

Dumingni likillatasan, olg'a ketasan .

«Baliq falsafasi» ikkiligi bir umr «ulug'lar» poyiga poyandoz bo'lib kelgan kimsalarning mutelarcha yashash tarzi va tiriklik falsafasini baliq obrazi misolida achchiq istehzo bilan yorqin aks ettirgan.

Tolib Yo'ldoshning quyidagi to'rtligi shoir badiiy tafakkur tarzining o'ziga xosligi va xalqchil donolikka moyilligidan dalolat beradi.

Yaxshilar suhbatin eshitib deysan,

O'zingda yo'q, xursand: – Suv bo'lib ketdim.

Men suvdek hayotga xizmat etsam, deb

Qalbimni shu to'rt yo'l she'rga berkitdim.

Asqad Muxtor ta'kidlaganidek, «ixcham aforistik ifodaga intilish, umr mazmuni, odamning hayotdagi o'rni, izi, yoshlik, keksalik, vaqt va manguilik haqidagi fikr hamda hayotiy tajribalarni aytib olishga harakat qilish uning butun ijodiga poetik bir o'ychanlik ruhini bag'ishlaydi. Poeziyaning bu turida ishlashning o'z qiyinchiliklari bor. Unda shoirni har qadamda didaktikaga, nasihatgo'ylikka berilib ketish xavfi poylab turadi. Ammo Tolib Yo'ldosh lirikasining eng yaxshi qismida bu xavfni chetlab o'tishga muvaffaq bo'layotir. Uning umr haqidagi o'ylarida mehnatkash xalqqa xos yorqin optimizm, kichik parchalarida yoshlikka xos o'ynoqi ravonlik doim sezilib turadi»[5;45] .

Ko'rinadiki, ijodkorning o'ziga xos badiiy tafakkur tabiati lirik asarlarning ifoda uslubini belgilab beruvchi ustuvor tamoyillardan biri vazifasini bajaradi. Qisqalik, fikriy yaxlitlik va lo'ndalik, teran ma'nodorlik yuqoridagi to'rtliklarning yetakchi xususiyati hisoblanadi. To'g'ri, bu to'rtliklarning turoqlari har xil. «Donishmand dediki...» she'ri o'n bir (11) bo'g'inli bo'lib, uning qofiyalanish tartibi ham o'zgacha: ya'ni birinchi, ikkinchi, to'rtinchi satrlar (a-a-b-a) qofiyadosh. «Baliq falsafasi» she'rida esa har ikki satr 8+5 turoqdan iborat. Birinchi satr ikkinchi satrda qayta takrorlanayapti. Oddiy refren usuli – satr bo'laklari qaytarig'i teran ma'nodorlikni yuzaga chiqargan va ohangdorlikni kuchaytirgan.

Tasvir predmetiga munosabat hamda uni yoritish yo'sini bu she'riy birliklarning tafakkur tarzi jihatidan ham, badiiy idrok va ifoda uslubini jihatidan ham farqlanib turishini ta'minlagan. Demak, poetik asar tabiati ijodkorning o'ziga xos uslubini belgilaydi. «Donishmand dediki...» to'rtligidagi «daryo» va «ummon» tushunchalarining taxayyulli timsollarga aylanishi teran falsafiy mazmuni yorqin ochishga xizmat qiladi. «Baliq falsafasi» ikkiligida esa poetik idrok va ifoda tarzidagi achchiq istehzo – baliqning dumini likillatish orqali oldinga siljish holatini

tasvirlashdan vujudga kelayotgan hajviy manzaraga chuqur ijtimoiy mohiyat baxsh etgan.

Ko'rinadiki, A.Oripov bilan H.Sharipovning ijodiy individualligini ta'minlagan muhim uslubiy xususiyatlar ularning o'ziga xos badiiy tafakkur tarzi orqali omuxtalikda namoyon bo'ladi.

Yuqorida kuzatilganidek, yirik so'z san'atkorlarining lirika janrlari hamda poetik shakllardagi izlanishlari bir-biriga o'xshamaydi. Demak, har bir shoirning badiiy tafakkur tarzidagi o'ziga xoslik ularning ijodiy individualligini belgilab beradi. Xususan, qasidadagi (aytaylik, «O'zbekim») ko'tarinki pafos, patetik ohang monologdagi («Men nechun sevaman O'zbekistonni») ifoda uslubidan keskin ajralib turadi va hatto E.Vohidovning «O'zbekim» va A.Oripovning «O'zbekiston» [6;298]qasidalari, garchi bir mavzuga bag'ishlangan, bir janrda yaratilgan asarlar bo'lsa-da, ijodkorning mavzuga yondashishi, xalqimizning olis o'tmishi, buguni va ertasini poetik tadqiq etishdagi tafakkur tabiatiga ko'ra bir-biridan farqlanadi. «O'zbekim»da ta'sirchan badiiy-publitsistik ifoda yetakchilik qilsa, «O'zbekiston»da esa falsafiy-analitik tahlil usuli ustuvorlik qiladi.

Demak, badiiy asar strukturasi barcha sifat o'zgarishlari, shu jumladan, milliy shakllar tarkibidagi yangilanish unsurlari ham ijtimoiy voqelik, san'atkor shaxsi, ongi va dunyoqarashining sintezi bo'lmish badiiy tafakkur tarziga borib taqaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Аристотель. Поэтика. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1980. – Б. 20.
2. Алишер Навоий. Хамса. «Ҳайрат ул-аброр». – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989. – Б. 34.
3. Орипов А. Йиллар армони. Шеърлар ва дostonлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1987. – Б. 441.
4. Шарипов Ҳ. Лирика. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1970. – Б. 24. Йўлдош Т. Ошиқ кўнгил. Шеърлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979. – Б. 97.
5. Асқад Мухтор. Кириш сўзи / Йўлдош Т. Ошиқ кўнгил. Шеърлар. – Тошкент, 1979. – Б. 3.
6. www.diss.natlib.uz
7. ziyo.uz

Rustamov Ilkhom Tursunovich. (2022). LINGUISTIC AND CULTURAL ASPECTS OF LITERARY TRANSLATION AND TRANSLATION SKILLS. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 10, 168–173. Retrieved from <https://journalzone.org/index.php/bjgesd/article/view/158>

Rustamov, I. (2022). Илхом TEACHING ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 4(4).

- Rustamov, I. (2022). Ilhom THE INTERLEVEL ANALYSIS OF VERBAL HUMOUR RESOURCES IN THE ENGLISH LANGUAGE: THE INTERLEVEL ANALYSIS OF VERBAL HUMOUR RESOURCES IN THE ENGLISH LANGUAGE. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 4(4).
- Rustamov, I. (2022). ilhom МИЛЛИЙ ЛАТИФАЛАРНИНГ СТЕРОТИПИК ТАЛҚИНИ: МИЛЛИЙ ЛАТИФАЛАРНИНГ СТЕРОТИПИК ТАЛҚИНИ. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 4(4).
- Rustamov Ilkhom Tursunovich. (2022). ON THE CONCEPTUAL METAPHOR: MAN IS UP, WOMAN IS DOWN. *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies*, 1(2), 28–31. Retrieved from <https://econferenceseries.com/index.php/icmsss/article/view/326>
- Tursunovich, R. I. (2022, November). THE SIGNIFICANCE OF PRAGMATIC APPROPRIATENESS IN ESL CULTURE. In *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies* (Vol. 1, No. 2, pp. 157-160).
- Rustamov, I. T., & Nargiza, Y. (2022). Study of Alisher Navoi Works in Europe. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 1021-1023.
- Rustamov, I. (2022). Ingliz tilida ta'na-dashnom tushunchalarni bildiruvchi leksik birliklarning semantik maydoni. *Scienceweb academic papers collection*.
- Rustamov, I. (2020). Ethnic stereotypes in anecdotes. *International Journal of Scientific and Technology Research*, 9(3), 622-623. Retrieved from <https://www.scopus.com/results/authorNamesList.uri?st1=rustamov&st2=ilhom&origin=searchauthorlookup>
- Tursunovich, R. I. (2022). Teaching a Foreign Language and Developing Language Competence. *Web of Scholars: Multidimensional Research Journal*, 1(8), 8-11.
- Ataboyev Isroiljon Mirza o'g'li. (2022). RESPONDING TO A SPEECH REPROACH. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 10, 161–167. Retrieved from <https://journalzone.org/index.php/bjgesd/article/view/157>
- Ataboyev, I. (2022). fazilatturgunova05@ gmail. com SEMANTIK MAYDONNI TASHKIL ETUVCHI UNSURLAR ORTASIDAGI ALOQA TURLARI: SEMANTIK MAYDONNI TASHKIL ETUVCHI UNSURLAR ORTASIDAGI ALOQA TURLARI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 4(4).
- Turg'unova, F. R. (2022). THE TITLE OF THE ARTICLE IN ENGLISH AS THE SUBJECT OF RESEARCH. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 10, 174-177.